

M U N D A R I J A

KIRISH.....	3
BOB I. SINTAKSIS TILSHUNOSLIKNING ALOHIDA BO'LIMI	
SIFATIDA.....	9
1.1 Sintaksis va uning o'rganish obyekti.....	9
1.2 Qo'shma gaplar haqida umumiy ma'lumot.....	18
BOB II. INGLIZ TILIDA ERGASH GAPNING IFODALANISHI.....	25
2.1 Ingliz tilida ergash gap va uning turlari.....	25
2.2 How relativ olmoshining ergash gaplardagi o'rni.....	40
XULOSA.....	54
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	57

KIRISH

Hammanizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishgach, fanga bo'lgan e'tibor yildan-yilga kuchayib bormoqda. Xususan, farzandlarimizning bizdan ko'ra bilimli, kuchli va albatta baxtliroq bo'lishi uchun chet tillarini ko'proq bilishi oldimizga qo'yilgan maqsadlarning zaminini ta'minlaydi.

Shuning uchun ham bejizga Prezidentimiz o'zlarining "O'zbekiston Mustaqillikka Erishish Ostonasida" nomli kitoblarida quyidagi so'zlarni keltirmaganlar: "... o'z ona tilini bilmagan odam o'zining shajarasini, o'zining ildizini bilmaydigan, kelajagi yo'q odam, kishi tilini bilmaydigan uning dilini ham bilmaydi, deb juda to'g'ri aytishadi". "...Har qaysi millat, katta yoki kichikligidan qat'i nazar, o'z ona tilini hurmat qiladi". "...Umuman, o'rtoqlar, agar rus millatiga mansub kishi o'zbek tilini bilsa, o'zbek esa rus tilini bilsa, buning ustiga hozirgi yoshlarimiz yana uchinchi tilni ham bilsalar, nur ustiga a'lo nur bo'lmasmidi?"- deb bugungi kun yoshlarimizning chet tillarni bilishlari kerakligi masalasini aniq va ravon ta'kidlab o'tganlar [1, 69-70].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning so'zlari bilan aytganda, "Jamiyki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir"[2, 108-109]. Shunday ekan, insoniyat ilmiy-texnologik taraqqiyot hamda iqtisodiy, madaniy va informatsion globallashuv jarayonlari avj olgan XXI asrda yashab kelmoqda ekan, bu hodisalar bilan yonma-yon butun dunyoda milliy-etnik va diniy o'zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni bir-biriga uyg'unlashtirish jarayonlari ham katta sur'at bilan ilgarilamoqda. Bu hollar, tabiiyki, jahondagi har bir xalqning faqatgina o'ziga xos bo'lgan madaniyati va ma'naviyati asosida esa milliy til turadi.

Zero prezidentimiz takidlaganlaridek, "Bilimdon, professional jihatdan savodli hamda g'ayrat shijoatli shaxslarni, o'z mamlakatining chinakkam vatanparvarlarini tarbiyalay oladigan, ularni buyuk milliy madaniyatining ulkan namunaviy merosi bilan boyita oladigan, jahon fani va madaniyati durdonalaridan

bahramand eta oladigan mamlakatgina, millatgina buyuk kelajakka erishishi mumkinligini yoddan chiqarmaslik lozim” [2, 260].

Prezidentimiz I.A.Karimov Oliy Majlis sessiyasida (29 avgust 1997 yil) xorijiy tillarni o’rganishning o’rni va muhimligiga asosiy e’tibor qaratgan holda “Mamlakatimizda xorijiy tillarni o’rganishning milliy asosdagi jadallashtirilgan metodikasini tayyorlashni tezlashtirishimiz zarur” [2, 131]ligini ta’kidlagan edi.

Barkamol va yangi avlod tarbiyalashning mamlakat strategiyasida o’z ifodasini topgan Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi xuddi shu ijtimoiy tafakkur vaziyatida shakllanadi: “...yuksak umumiy va kasb xunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo’ljalni to’g’ri ola bilish mahoratiga ega bo’lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo’naltirilgandir” [3,34].

Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, “Talim tarbiya tizimidagi islohotlar boshlangan dastlabki yillarda jahon tajribasi va hayotda o’zini ko’p bor oqlagan haqiqatdan kelib chiqib, agar bu maqsadlarimizni muvaffaqiyatli amalga oshirolsak tez orada hayotimizda ijobiy manodagi “portlash effektiga, ya’ni, yangi ta’lim modelini kuchli samarasiga erishamiz” degan fikrni bildirgan edim. Darhaqiqat, istiqbol davrida barpo etilgan barcha shart sharoitlarga ega bo’lgan Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy o’quv yurtlarida tahsil olayotgan, zamonaviy kasb-hunar va ilm-ma’rifat sirlarini o’rganayotgan, hozirdanoq ikki-uch tilda bemalol gaplasha oladigan ming-minglab o’quvchilar hayotga kirib kelayotgan, o’z iste’dodi va salohiyatini namoyon etayotgan yosh kadrlarimiz misolida orzu intilishlarimiz bugunning o’zida o’z hosilini berayotganining guvohi bo’lmoqdamiz” [2, 61].

Respublikamiz prezidenti I.A.Karimovning “Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to’g’risida”gi farmoni; Respublika Vazirlar Mahkamasining “Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida “ nomli qarori va boshqa me’yoriy hujjatlar O’zbekistonda ilm-fanni, shu jumladan, tilshunoslikni ham rivojlantirishda muhim rol o’ynamoqda.

Bu borada Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek "Bugun jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik hamkorlarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini bunyod etayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir" [4,1].

Yuqoridagi fikrlarning barchasi mamlakatimiz ravnaqida, ayniqsa, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi orqali belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ilmfanning roli va ahamiyati qanchalik yuksak ekanligini belgilaydi. Bunday maqsad va vazifalarni amalga oshirishda boshqa fanlar bilan bir qatorda tilshunoslikning ham o'z o'ri bor. Ma'lumki, til azal-azaldan xalqlarning ham iqtisodiy, ham ijtimoiy-siyosiy integratsiyasi uchun asosiy vosita vazifasini o'tab kelgan. Shunday ekan, O'zbekiston Respublikasining jahon xamjamiyatidagi integratsiyasi umumdavlat ahamiyatiga molik bu muhim muammolarning hayotga tadbiiq etilishiga bog'liqdir.

Ushbu bitiruv-malakaviy ishi hozirgi zamon ingliz tilshunosligida ergashgan qo'shma gaplar va ularda How relativ olmoshining ishlatilish o'ri, vazifasi, ifodalanishini tahlil qilishga bag'ishlanadi.

Mavzuning dolzarblii. Mavzuning dolzarblii shundaki, hozirgi kun ingliz tili gap qurilmasida qo'shma gaplar muammosi, ayniqsa ergash gap va bosh gapning bir-biri bilan bog'lanish usullari dolzarb muammolardan biridir. Bunda ayniqsa How relativ olmoshining ishlatilish o'ri ergashgan qo'shma gaplarda ahamiyati ortib bormoqda.

Ishning maqsadi. Ingliz tilida ergashgan qo'shma gaplarda How relativ olmoshining ishlatilish o'ri, uning gapda qaysi gap bo'lagini aniqlab, izohlab kelishi, hamda uni boshqa qo'shma gaplarda ishlatilgan variantlari bilan farqlanishdan iborat. Bundan tashqari How relativ olmoshining ergashgan qo'shma gaplardagi eng muhim grammatik ko'rsatkichi ergash gapning bosh gapdan oldin yoki keyin kelish muammosi bilan bog'liqligidadir.

Muammoning o'rganilish darajasi. Bizga ma'lumki shu davrga qadar ko'pgina o'zbek va ingliz tilshunos olimlarimiz ingliz tilida ergashgan qo'shma

gaplar, bosh va ergash gaplarning bir-biri bilan birikish usullari haqida ko'plab fikrlarni aytib o'tishgan. Bundan tashqari ko'plab tilshunos olimlar ham ergashgan qo'shma gaplar, ularning turlari, qo'shma gap qismlarini biriktiruvchi bog'lovchilar va bog'lovchi so'zlar haqida ma'lumotlar berib o'tganlar. Ammo ergashgan qo'shma gaplarni bir-biri bilan bog'lanish usullari, ergash gap bilan bosh gapni biriktiruvchi bog'lovchilar va bog'lovchi so'zlarga alohida to'xtalib o'tilmagan. Ayniqsa, How relativ olmoshining ergashgan qo'shma gaplardagi o'rni haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

Ishning maqsad va vazifalari. Ushbu bitiruv malakaviy ishida ergashgan qo'shma gaplarning ergash va bosh gaplarini bog'lashda ishtirok etuvchi How relativ olmoshining o'rni, uning ergashgan qo'shma gapning turlarida ishlatilinish ahamiyati, How relatriv olmosh ishtirok etgan ergash gap qaysi gap bo'lagini izohlab, aniqlab va to'ldirib kelishi maqsad qilib olingan. Uning asosiy vazifalari shundan iboratki, u ergash gap tarkibida ishtirok etib, bosh gapning turli xil bo'laklarini ifodalab, u ega ergash gap, kesim ergash gap, to'ldiruvchi ergash gap yoki aniqlovchi ergash gapekanligini aniqlab kelishida namoyon bo'ladi.

Biroq ingliz tilida How relativ olmoshining ergash gaplarda ishlatilinish o'rni uning ahamiyati borasida izlanish olib borilmagan. Shunday ekan, ushbu ishda How relativ olmoshini ergash gaplarda ishtiroki, u ishtirok etgan gapda bosh bo'laklarning bo'lishi va bosh gapga ergashib, bosh gap ergash gap tomonidan qanday aniqlanib va izohlanib kelishi haqida to'xtalib o'tishni maqsad qilganman. Bunda, ya'ni ergash gaplarni turlarini belgilashda komponentlarni biriktiruvchi grammatik vositalarnigina emas, balki ergash gap bosh gapga nisbatan qanday vazifani bajarishligini, shuningdek ergash va bosh gaplarning o'zaro munosabati, tuzilish xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Ishning obykti va predmeti. Ishning asosiy ob'ekti bu tilshunoslik sohasida o'rganilib kelinayotgan tilning sintaktik sathlari va ularning grammatik jihatdan qurilish yoki strukturalarini o'rganishdir. Buning asosiy predmeti How relativ olmoshining ergash gapning tarkibida kelishi sintaktik birliklar sifatida

sintaksis qismida o`rganilsa, ularning aloqalari morfologik jihatdan grammatikaning morfologiya bo`limida o`rganiladi.

Ishning metodologik va nazariy asoslari. Ishining metodologik asoslari hamda nazariy asoslari shundan iboratki, bunda ingliz tili grammatikasida How relativ olmoshi ishtirok etgan ergash gaplar bosh gapdagi harakatga yo`naltirilgan bo`ladi va uni ergash gapning qaysi turiga mansubligini sintaktik modelga solingan konstruktsiya shaklda o`rganiladi. Ergash gapda kelayotgan How relativ olmoshi har qaysi ergash gap turiga ishtirok etishiga qaramay ular ma`lum modellar asosida metodologik va nazariy jihatdan o`rganilib chiqiladi. Shu sababli ham har bir grammatik birlik ham semantik, ham grammatik jihatdan to`g`ri tuzilgan bo`lishi kerak.

Ishning metodlari. Bu kabi masalalarni yechishda lisoniy metodlardan, komponentlarga va sintaksemalarga ajratib tahlil qilishda, transformatsiya metodidan, eksperimentdan foydalaniladi.

Komponentlarga ajratib tahlil qilish sintagrammatik asosda olib borilsa, sintaksemalarga ajratib tahlil qilish paradigmatik asosda olib boriladi. Biz ushbu ishimizda ergashgan qo`shma gaplarda How relativ olmoshining o`rnini aniqlashda tushurib qoldirish, transformatsiya metodidan foydalanishni maqsad qilib olganman.

Himoyaga olib chiqiladigan asosiy holatlar. Ushbu ishda himoyaga olib chiqiladigan asosiy holatlar quyidagilardan iborat bo`lib, ingliz tilida ergashgan qo`shma gaplar tarkibida keladigan How relativ olmoshining o`rni va uni ergash gapning qaysi turlarida uchrashini, bosh gapdagi qaysi qismni aniqlab kelishi, bu olmosh ishtirok etgan gap bosh gapdan oldin, keyin yoki uning o`rtasida qo`llanilishi hamda How relativ olmoshi ishtirok etgan gaplar uyushib kelishini o`rganishdan iboratdir.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Mazkur ishda ergash gap, ularda How relative olmoshining ishlatilishi va ergash gapning qaysi turiga mansubligini aniqlash tahlil qilinadi va ular bosh gapning qaysi bo`lagini izohlab kelishi, How relative olmoshi ishtirok etgan ergash gaplar uyushib kelishi mumkin bo`lgan

hollar, hamda How relative olmoshi ishtirok etgan ergash gaplar o'zbek tiliga tarjima qilinganda har doim ham "qanday" deb tarjma qilinmaslik hollari Grammatik jihatdan yoritiladi. Ergash gaplarda ishtirok etgan How relativ olmoshi izohlab, to'ldirib, aniqlab kelayotgan bosh gapning bo'laklari o'rganiladi, tahlil qilinadi, ularning bosh gapdan oldin yoki keyin kelishi va bunday hollarda gapning ma'nosiga ta'sir qilish va qilmasligi grammatikaning muhim vazifalaridan biri bo'lib, ergash gapning turli xil ko'rinishlari va turlari borligini ko'rsatishga muayyan hissasini qo'shadi. Ishdagi tahlil natijalari, nazariy va amamliy grammatikalar, sintaksis bo'yicha maxsus kurs sifatida yuqori bosqich talabalari uchun qo'llanmalar tuzishda foydalanish va tadqiqotmateriallaridan va natijalaridan lingvistik tahlil bo'yicha maxsus seminarlarda biroz bo'lsada foydalanish mumkin deb o'ylayman.

Ishning tuzilishi. Ish kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

BOB II. SINTAKSIS TILSHUNOSLIKNING ALOHIDA BO'LIMI SIFATIDA

1.1 Sintaksis va uning o'rganish ob'ekti

Morfologiya grammatikaning birinchi tarkibiy qismi bo'lsa, sintaksis uning go'yo amaliy ko'rinishi deyish ham mumkin. Obrazli qilib aytadigan bo'lsak, fonetika, leksika va morfologiyani uy qurilishidagi zaruriy ashyolarga taqqoslashimiz, uyning qad rostlashini esa sintaksis sifatida tasavvur qilishimiz ham mumkin. Shuning uchun bo'lsa kerak "sintaksis - xayot degani"deb ta'kidlovchi tilshunoslarimiz ham yo'q emas. Darhaqiqat, "Morfologiya ayrim kategoriyalarning (so'z kategoriyasining) inventaridan iborat. Sintaksis esa bu so'z va so'z formalarning hammasini harakatda va xayotda nutq tarkibida ko'rsatadi"- deydi Bogoroditskiy V.P.

Grammatikaning tarkibiy qismi bo'lgan sintaksis haqida gap borar ekan, avvalo uning o'zaro bog'lanishli nutq qurilishini o'rganuvchi bo'lim ekanligini hamda so'z turkumlarining nutqdagi sintaktik funksiyalari haqidagi ta'limot ekanligini yodda saqlamoq zarur.

Sintaksis - birlashtirish, tuzish degan ma'nolarni anglatadi (grekcha). U til sistemasidagi sathlardan biri bo'lib, quyi sath birliklaridan tashkil topadi.

Sintaksisni o'rganish o'zining uzoq, ko'p asrlik tarixiga ega bo'lishiga qaramay, uning o'rganish predmeti, tilshunoslik fanida uning chegarasi masalasi hamon o'zining dolzarbligini saqlab qolmoqda. Shu kunga qadar ham grammatikaning bir bo'limi sifatidagi sintaksisning predmetini belgilashda tilshunoslar o'rtasida bir xillik yo'q. Antik davrning grammatik g'oyalari bilan oziqlangan dastlabki tilshunoslik an'alarida sintaksis ostida gap va uning qismlari haqidagi ta'limot anglashilgan. Gap logika kategoriyalari asosidagi modellar orqali izohlangan. Sintaksisning vazifasi logik kategoriyalarning til analoglari (muvofiglashishlari)ni belgilashdan iborat bo'lgan. Gapning qismlari butun nuqtai nazaridan qaralgan va ularning vazifasi gap tarkibidagi mazmuniy funksiyaga tayanib belgilangan. Bunday logik modellarni XIX asrning yarmigacha bo'lgan, evropa tillarining deyarli barcha sintaktik tadqiqotlarida uchratish

mumkin. Sintaksis gapda ifodalangan fikrning xususiyatini o'rganuvchi grammatikaning bo'limi sifatida qaralib, uning vazifasi nutqning mazmuniy aspektini tadqiq qilish, deb hisoblangan. Xususan, F.I.Buslaevning fikricha, tilda bo'laklar ajraladigan tovushlar (forma) va ular orqali ifodalanadigan fikr birligi mavjud bo'lib, birinchisi etimologiyaning, ikkinchisi esa sintaksisning tekshirish obekti hisoblanadi. Ko'rinib turibdiki, bunday sintaksis tilning sinxron(bir vaqtlilik) holati bilan bog'liqdir. Ilmiy grammatikalar tarixiy asosda yaratila boshlanishi bilan sintaksis sinxron analiz metodi bilan bog'lanadi va diaxron analiz metodi bilan xarakterlanadigan etimologiya (morfologiya)ga qarama-qarshi qo'yildi. Etimologiya va sintaksis bir-biriga bog'liq. Ularning farqi tarix va hozirgi holatni tasvirlashdan iborat bo'lib, oxirgisi birinchisi tomonidan izohlanadi, deydi A.A.Potebnya[2,234]. Shunday qilib, sintaksisda fikrning logik yoki psixologik mazmunini o'rganish tendensiyasi natijasida grammatikaga forma va mazmun oppozitsiyasi, tilga sinxron va diaxron yondashish oppozitsiyasi olib kirildi. (Oppozitsiya - qarama-qarshi qo'yish).

XIX asrning yarmidan boshlab, sintaktik nazariyada e'tibor butun (gap)ga emas, balki uning bo'laklariga qaratildi. Tilshunoslar diqqatlarini so'z turkumlari va so'z formalarning gapdagi funksiyalariga jalb qila boshladilar. Bu grammatik analizning formal tomoniga va tillarning milliy o'ziga xosligiga e'tiborning kuchayishi natijasida vujudga keldi. Butun bir gapning logik analizi o'z o'rnini so'zlarning sintaktik(birinchi navbatda birikish) xususiyatlarining grammatik tavsifiga bo'shatib berdi. Logitsizmdan morfologizmga o'tish til tabiatiga birmuncha yaqin borgan bo'lsa-da, ammo sintaksisga bunday yondashish uning sistema sifatidagi to'la izohlanishiga monelik qildi. Bo'lak butun ichida emas, undan ajralgan holda o'rganildi.

Gapni bir butun birlik sifatida xarakterlab turadigan barcha hodisalar: propozitivlik (oldiga quyish), predikativlik(gap mundarijasining real voqelikka munosabati til vositalarida ifodalanishi), modallik (mayl), aktuallik va boshqalar so'z turkumlari sintaksisining nazaridan chetda qoldi.

Y.Ris esa soʻz turkumlari sintaksisini tanqid qilib, bu yoʻnalishdagi grammatikachilarni organizmning ayrim aʼzosi orqali maʼlum bir hayvon haqida maʼlumot berishga uringan zoologga qiyoslaydi. U soʻz turkumlari sintaksisida sintaktik materiallar tizimining izchil emasligini, sintaksis predmetining statusini belgilashda aniq chegaraning yoʻqligini qoralaydi va oʻzi grammatikaning oʻzaro bogʻlangan ikki mezon asosida boʻlishni hamda boʻlinishini tavsiya etadi. Ulardan biri soʻz va soʻz birikmasining miqdoriy oppozitsiyasi, ikkinchisi forma va mazmun oʻrtasidagi sifat oppozitsiyasi. Y.Risning fikricha, sintaksis predmeti ham forma, ham mazmun tomonini hisobga olgan holda soʻz birikmasi boʻlishi kerak ekan. Gap ham soʻz birikmasining eng muhim turi deb qaraladi. Sintaksis soʻz haqidagi taʼlimotga qarama-qarshi qoʻyiladi. Soʻzning gapga toʻgʻridan-toʻgʻri qarama-qarshi qoʻyilishini tanqid qiladi. Chunki bunday oppozitsiyada qarama qarshi qoʻyiluvchi elementlarning shakliga emas, balki mazmuniy aloqadorligiga koʻproq eʼtibor beriladi. Shu sababli bu kabi oppozitsiyaning mavjud boʻlishi sintaksisdagi formal yondashishga putur yetkazadi, deydi. Sintaksisga taalluqli bu singari konsepsiya rus tilshunosligida F.F.Fortunatov, M.N.Peterson, A.M.Peshkovskiy va boshqalarning asarlarida ham oʻzining yorqin ifodasini topdi.

Rus tilshunosligi namoyondalaridan biri boʻlgan V.V.Vinogradov sintaksis haqida fikr yuritib, soʻzning soʻz birikmasi va gap tarkibida birikish qoidalarini, usullarini hamda soʻz birikmasi va gap tiplarini, ularning tuzilishi, funksiyasi, qoʻllanish shart-sharoiti kabi rivojlanish qonuniyatlarini oʻrganishdir, deb qayd etadi. Uningcha, sintaksisning xarakterli xususiyati shundaki, uning har bir oʻrganish obʼekti oʻzidan yuqoriroq boʻlgan grammatik birlikning struktur elementi sifatida funksiyalashadi: soʻz va uning formalari soʻz birikmasi va uning struktur elementi sifatida, soʻz birikmasi turli yoyiq gaplarning struktur elementi sifatida, gap doirasida esa, oʻz navbatida, sodda gap qoʻshma gapning struktur elementi sifatida xizmat kiladi. Shu bilan birga sintaksis doirasida uning asosiy kategoriyalari hisoblangan soʻz birikmasi va gap oʻrtasida aniq sifat tafovutlari mavjud. Soʻz birikmasi gap uchun faqat qurilish materialidir. U nutqiy informatsiyaning bir butun birligi emas, soʻz birikmasi ikki va undan ortiq

mustaqil so'zlarning grammatik-semantik aloqasidan tashkil topgan grammatik birlik bo'lib, faqat gap tarkibida va gap orqali tilning kommunikativ vositasi sistemasiga kiradi. Vinogradov sintaksis tarkibida so'z birikmasi va gap asosiy o'rinda turishi haqidagi xulosaga keladi. Shunday qilib, uning bu konsepsiyasi maktab va oliy ta'lim dasturlaridan qat'iy o'rin oldi. U o'z fikrlarini rivojlantirar ekan, sintaksis uchinchi birlik sifatida qo'shma gapni ham o'z ichiga olishini uqtiradi. Ya'ni, qismlari o'zaro sintaktik aloqa bilan bog'langan so'z shakllarining nopredikativ sintaktik birligi - so'z birikmasi; so'z shakllarining bir necha sintaktik aloqasidan tashkil topgan predikativ sintaktik birlik-gap; qismlari o'zaro sintaktik munosabatga kirishgan gaplardan iborat bo'lgan sintaktik birlik esa qo'shma gap sanaladi. Hozirgi kunda matn sintaksisi e'tirof etilishi munosabati bilan matn ham sintaksisning alohida o'rganish obekti sifatida tan olinmoqda. Bunday holatda sintaksisning o'rganish obekti turtta ekanligi anglashiladi: 1) so'z birikmasi sintaksisi; 2) gap sintaksisi; 3) qo'shma gap sintaksisi; 4) matn sintaksisi.

Ammo bu yerda qo'shma gapni gapga qarama-qarshi qo'yish mumkin emas. U gap doirasida gapning bir turi sifatida o'rganilishi maqsadga muvofiqdir, deb ta'kidlaydi professor A.Nurmonov[34,23].

Anglashiladiki, sintaksisning o'rganish obekti uchta va shunga muvofiq sintaksis ham uch turga bo'linadi:

1) so'z birikmasi sintaksisi; 2) gap sintaksisi; 3) matn sintaksisi.

Tilshunoslik taraqqiyotining hozirgi bosqichida sintaksis so'z birikmasi va gapnigina emas, gapdan katta birliklar bo'lgan abzas, murakkab butunlik, supersintaktik butunlik, matn kabilarni ham qamrab olar ekan, bu uning tekshirish ko'lamini yanada kengaytiradi. Sintaksis predmetini belgilashda bu, albatta, hisobga olinmog'i kerak va shu asosda u til va nutqning sintaktik qurilishi haqidagi ta'lim sifatida baholanadi.

So'z birikmasi va gaplar qolipi til birligi hisoblansa, konkret so'z birikmalari yoki gap shakllari nutq birliklaridir.

Tildagi sintaktik qurilishning asosiy xususiyatlaridan biri shuki, uning rivojlanishi tafakkur rivojlanishi va jamiyat nutqiy aloqa ehtiyojlari

rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda o'zidan oldingi qaysi bo'limlar bilan aloqadorlikda sintaksisning namoyon bo'lishini bilish ham muhimdir.

Sintaksis fonetika bilan bog'liqdir. Fonetika bilan bog'liqligi shundaki, sintaktik birliklarni tashkil etgan gap bo'laklari, so'z birikmalari va gaplar nutq tovushlaridan tashkil topadi. Bundan tashqari urg'u, melodika va intonatsiya kabi fonetik hodisalar ham sintaksis uchun ahamiyatlidir. Jumladan, urg'u gapdagi bo'laklardan biriga tushishi natijasida boshqasiga nisbatan kuchliroq talaffuz qilindi, deylik. Masalan: He doesn't go home. Gapida urg'u "doesn't go" kesimiga tushirilsa, borish harakati umuman amalga oshmasligi ayon bo'ladi. Urg'u gapdagi "home" so'ziga tushiriba ytilganda esa harakat uyga nisbatan amalga oshmasligini o'qib olish qiyin emas. Tovushning baland-past bo'lib melodik tovlanishi ham gapning fikriy maqsadga va emotsionallikka ko'ra turlarini belgilashda yordam beradi. Birgina Onam keldi gapini darak, so'roq, darak-undov ohangida aytish fikrimizning yorqin dalili bo'la oladi. Gap yoki birikmada pauzaning o'zgarishi ham bir xil materialni turlicha talqin etish imkonini beradi. Masalan, baland bolaxonali uy. Bunda baland so'ziniig bolaxonaliga yoki uy so'ziga tegishli ekanligini pauza aniqlashtirib bera oladi. Bunday aloqadorliklarni yana ko'plab topish mumkin.

Sintaksis leksikologiya bilan ham bog'liqdir. Tildagi so'zlar grammatika ixtiyoriga o'tib, o'zaro sintaktik munosabatga kirishib ma'lum bir fikr ifoda qiladi. Kishilarning fikr almashuvi uchun xizmat qiladi. So'zlar nutqda qo'llanib, ma'lum bir fikr va uning nozik ottenkalarini ifodalashda ishtirok eta boshlagandagina, ularning til birligi sifatidagi xususiyatlari namoyon bo'la boshlaydi. Masalan, back, ball, bark so'zlarining ma'nolarini gap yoki so'z birikmasidan tashqarida aniqlash mumkin emas. So'zlarning sintaktik aloqaga kirishuvi mazmun bilan bog'lanadi: So'zlar ichki mazmun tomonlari mos kelgandagina birikadi; so'zlarning grammatik munosabatga kirishuvi o'sha so'zlar bilan ifodalangan tasavvurlar orasida ma'lum munosabat, aloqa borligiga asoslanadi.

Frazeologik birliklar ham birdan ortiq soʻzdan tarkib topadi, lekin ular odatdagi erkin soʻz birikmalarida boʻladigan harakatchanlikka ega emas. Ular har gal gap qurish jarayonida fikr talabiga qarab tashkil topmaydi. Ular bir soʻz singari leksik xarakterga ega boʻlib, leksikologiya tarkibidagi frazeologiyada tekshiriladi. Oʻz tomonlari bilan soʻzga teng keladigan bunday iboralarni uy qurishda ishlatiladigan butun-butun bloklarga qiyoslash mumkin.

Morfologiyani ham sintaksis bilan teng xuquqli hamda bir-birini toʻldiruvchi, oʻzaro munosabatda boʻlgan sohalardir deyish mumkin. Gap turlari (darak, soʻroq, buyruq, undov gaplar)ning bir-biridan farqlanishi, asosan, kesimlarning qanday soʻz turkumi orqali ifodalanishiga bogʻliq. Soʻz birikmalari ham boshqaruvchi boʻlakning qanday soʻz turkumi ekanligiga qarab klassifikatsiya qilinadi. Nisbiy ergash gaplar bosh gap tarkibidagi korrelyativ soʻzning qaysi kelishik formasida ekanligiga qarab ega, kesim yoki toʻldiruvchi vazifasini bajaradi. Bogʻlovchisiz koʻshma gaplarni tashkil etgan qismlardagi kesimlarning oʻzaro zamon munosabati bu xil qoʻshma gaplarni maʼlum guruhlariga ajratishda asos boʻladi va hakazo. Umuman, har bir sintaktik kategoriya morfologiya bilan bogʻlangan holda, koʻpincha unga asoslangan holda tahlil qilinadi va belgilanadi. Baʼzan bu ikki sohani bir-biridan ajratish ham qiyin boʻladi. Masalan kelishiklar morfologiyada ham sintaksisda ham oʻrganiladi, ammo morfologiyada, asosan, kelishik yolgʻiz formal jihatdan (shakli va qaysi soʻz turkumiga qoʻshila olishi) tekshirilsa, sintaksisda kelishikning vazifasi, qanday soʻzlar va boʻlaklar bilan birikishi oʻrganiladi. Ammo kelishik va yordamchi soʻzlarning ayrim funksiyalari morfologiyada ham eʼtiborga olinadi. Oʻzbek tili morfologiyasini oʻrganishda sintaksisning roli muhim ekanligini ham taʼkidlash zarur. Chunki oʻzbek tili soʻz turkumlari ingliz, rus tilidagi kabi baʼzi grammatik koʻrsatkichlari bilan bir-biridan ajralib turmaydi. Rus tilida -ar, -uy, -oe belgilari soʻzning sifat ekanini, ingliz tilidagi -ly belgisi esa sifatga qoʻshilib, uning ravishligini koʻrsatib turadi. Shuning uchun soʻzlarni turkumlarga taqsimlashda sintaksisning roli ortadi, yaʼni maʼlum soʻzni biror soʻz turkumiga kiritish uchun uning maʼnosi va baʼzi morfologik

xususiyatlari bilan birga, ayniqsa, shu soʻzning sintaktik funksiyasini hisobga olmaslik mumkin emas.

Sintaksis bilan morfologiyani teng huquqli grammatikaning qismlari deyishimiz mumkin, biroq sintaktik kategoriya bilan morfologik kategoriya bir-biriga teng boʻlmasligi ham mumkin. Bizning kolxoz – toʻq kolxoz (folklardan) misolida 4 ta soʻz turkumi bor, biroq sintaktik jihatdan ega va kesim mavjud, xolos. Anglashiladiki, sintaksisda soʻzlar morfologiyadagiga nisbatan kengroq aspektida, maʼnosi va funktsiyasi hisobga olingan holatda tekshiriladi.

Sintaksisning yana oʻziga xos xususiyatlaridan biri uning bogʻli nutqni tekshirishidir. Bogʻli nutqni boʻlaklarga ajratib, uning tarkibiy qismlari orasidagi har xil munosabatlarni aniqlash muhim ilmiy-metodik ahamiyatga egadir. Shuningdek, soʻz tartibi, punktuatsiya kabi kategoriyalar ham sof sintaktik hodisalar boʻlib, yuqorida qayd qilingan til fani boʻlimlari bilan chambarchas aloqadorlikda sintaksisda oʻrganiladi.

Sintaksisning oʻrganish predmeti soʻz birikmasi, gap yoki matn deb qaralar ekan, uning tarkibiy qismlari sifatida ham ana shu uch sintaktik birlikni koʻrsatish mumkin. Biroq bu sintaktik birliklarning tashqi bevosita kuzatishda berilgan jihatlari, xolos.

Bunday deyishimizning boisi shuki, anʼanaviy tilshunoslik lisoniy birliklarning faqat shakliy tomonini oʻrganishga koʻproq eʼtiborni qaratdi. Ularning oʻzi ifodalayotgan obektiv borliq bilan munosabati tadqiqotdan chetda qoldi.

Keyinchalik tilni bunday oʻrganish bir yoqlama ekanligi, shaklni maʼnodan uzib boʻlmasligi maʼlum boʻldi. Natijada lisoniy birliklarning maʼno tomoniga eʼtibor kuchaydi.

Axborotning toʻgʻri tushunilishi uchun soʻzlashuvchilarning til haqidagi bilimidan tashqari, tinglovchining olam haqidagi bilimi, jumla qoʻllanayotgan ijtimoiy holat haqidagi bilimi, soʻzlash jarayonida soʻzlashuvchilar ruhiyati haqidagi bilimi va boshqa bilimlarni ham qoʻshish kerak boʻladi. Tushunishda teppa-teng xizmat qiladigan bu bilimlarning oʻzaro munosabatini

hisobga olgandagina biz nutqiy jarayonning mohiyatini to'la anglashga yaqinlashgan bo'lamiz. Shu amaliy ehtiyoj tufayli semantika va pragmatika vujudga keldiki, bu birliklarning uch tomonisiz aloqa vositasi bo'lgan til o'zining to'liq talqinini topa olmaydi. Anglashiladiki, sintaktik birliklar tarkibining ham yana o'ziga xos ichki tarkibiy elementlari mavjud. Bular: 1) sintaktika; 2) semantika; 3) pragmatika.

Sintaktika lisoniy birliklarning shakliy munosabatlarini, ya'ni lisoniy belgilar o'rtasidagi munosabatni o'rganadi. Sintaktika sintaktik shakllar asosida ish ko'radi. Demak, sintaktika an'anaviy sintaksis-gap bo'laklari nomi bilan o'rganiladigan gapning sintaktik tizimiga tayanadi. Sintaktikaga muvofiq, har qanday sintaktik birlik nutqiy jarayonda turli variantlarda namoyon bo'luvchi umumlashgan mohiyat sifatida talqin qilinadi.

Semiotika (belgilar xususiyatini o'rganuvchi fan) asoschilaridan biri Ch.Morris ham semiotikani uchga bo'ladi: 1) semantika - belgining borliq obekti bilan munosabati haqidagi ta'limot; 2) sintaktika-belgining belgi bilan munosabati haqidagi ta'limot; 3) pragmatika-belgining so'zlovchi bilan munosabati haqidagi ta'limot. Anglash mumkinki, mazmuniy sintaksis ongda aks etgan obektiv reallik elementlarini, ya'ni propozitsiyaning sintaktik qurilmalar orqali qanday ifodalanganini o'rganadi. Boshqacha aytganda, mazmuniy sintaksis kurilmalarning propozitsiya tomonini o'rganadi. Gap tuzilishi, bu gap orqali ifodalanayotgan borliq parchasi tuzilishi bilan solishtiriladi. Sintaksisning asosiy birligi gap inson ongida aks etgan borliqdagi ayrim voqeani, borliq parchasini ifodalaydi: the child is playing, the apple is blossomed. Gap bo'lagi esa borliqning ongda aks etgan alohida elementlarining shu vaziyatda qanday vazifa bajarayotganligini ko'rsatadi: the student entered the room (the student -harakat subekti, the room -harakat o'rni, entered -harakat kabilarni ifodalaydi). So'z birikmasi esa ongda aks etgan borliq elementlarining o'zaro munosabatini ifodalaydi: a red flower. to read a book. Lisoniy birliklarning sintaktika va semantikasi bu birliklarning to'liq tavsifi uchun kamlik qiladi. Sintaktika va semantikaga pragmatika qo'shilgandagina, ular o'zining haqiqiy talqinini topadi. Masalan: Everybody is enjoying (Hamma vaqtini

xushnud o'tkazmoqda) jumlasini orqali muayyan shaxslar va ularning muayyan zamon va makondagi holati propositsiyasi ifodalangan. Lekin jumla orqali ifodalangan propositsiyaning so'zlashuvchilarga tushunarli bo'lishi uchun bugina kifoya qilmaydi. Buning uchun so'zlashuvchilar vaqtini xushnud o'tkazayotgan ma'lum guruhlar, ularning holati, ro'y berayotgan makon va zamon haqida umumiy bilimga ega bo'lishlari lozim bo'ladi. Chunki dunyodagi barcha odamlar vaqtini xushnud o'tkazishi mumkin emas. Jumla orqali ifodalanayotgan propositsiyaning nutq vaziyati bilan ana shunday munosabatini o'rganish jumlaning pragmatika tomonini tashkil qiladi. Nutq vaziyati bilan kontekst pragmatik tadqiqotlarning asosini tashkil qiladi. Shuning uchun ham sintaktik qurilma ifodalagan propositsiyaning so'zlashuvchilarga tushunarli bo'lishi uchun nutq vaziyati yoki kontekst zarur bo'lgan joyda pragmatikaga ehtiyoj ortadi. Bu quyidagi hollarda ro'y berishi mumkin: 1) jumla tarkibida sen, hatto, faqat, hozir singari deskriptiv bo'lmagan ("ichi bo'sh") so'zlar ishtirok etganda. Bunday so'zlar tahlili esa pragmatikaga tomon siljishga keng yo'l ochadi. Pragmatika esa o'z tarkibida presuppozitsiya (tag bilim)ning o'rganilishini taqozo etadi. 2) jumla kishilar o'rtasidagi aloqa jarayonida vujudga keladi. Shuning uchun ham ularning har birida shaxsning o'zi o'z ifodasini topadi. Chunki "til – borliqning uyi" -deydi M.Xaydegger, unda insoniyatning ma'naviy, ruhiy olami aks etadi. Jumla mazmunini so'zlovchi bilan uzviy bog'lab turgan so'zlar ham pragmatikaning tadqiqot obektidir. Bevosita mayl (modus) ni ifodalovchi kirishlar, baho bildiruvchi so'z va vositalar sintaksisning pragmatika tomoni orqali o'rganiladi. 3) insonning subektiv ruhiyatini aks ettiruvchi diskurs ham pragmatikaning o'rganish doirasiga kiradi. E.Benvenist fikriga ko'ra, so'zlovchi va tinglovchini taqozo qiluvchi va so'zlovchining tinglovchiga qanday yo'l bilan ta'sir qilish maqsadini aks ettiruvchi har qanday jumla diskurs sanaladi. Jumlaning ifoda maqsadiga ko'ra turlari, ob'ektiv mazmun bilan ifodalangan shakl o'rtasidagi munosabat, shakl va mazmun o'rtasidagi tengsizlik holatining nutqdagi ta'siri kabi masalalar ham pragmatikaga kiradi. 4) "men" va "boshqalar" o'rtasidagi munosabatni ko'rsatuvchi nutqiy odat(etiket), hurmat ifodalash usullari ham

pragmatikaning o'rganish sohasidir. 5) pragmatikaning eng muhim sohasi tag bilim (presuppozitsiya bo'lib, Ahmad keldi jumlasida qandaydir shaxsning kelganligi boshqalar uchun ma'lum bo'lishi mumkin, biroq Ahmadning qanday shaxsligi, qayerdan, qayerga, nima maqsadda kelganligi haqidagi ma'lumot qorong'i. So'zlovchi va tinglovchining oldindan shunday ma'lumotga ega bo'lishi bevosita ifodalangan axborotning tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.

Tag bilim-bevosita axborotda shakllanmagan, yashirin holda aks etgan ma'no bo'lib, yuqoridagi birinchi holatda ko'rsatilgan("bo'sh")"ichi bo'sh" so'zlar deyilganda ham yashirin ma'no aks ettira olish imkoniyati nazarda tutiladi.

Masalan: Ko'prikni sen qurding deyilsa- Boshqalar qurmadik degan. Biz hatto ko'prik qurdik deyilsa - Boshqa narsa ham qurdik, degan. Biz faqat ko'prik qurdik deganda esa - Boshqa narsa qurmadik degan ma'nodagi presuppozitsiyalarni namoyon qiladi. Sintaksis tarkibi o'zining ana shunday chuqur nazariy tarkibi bilan ham tilshunoslikning muhim bo'limi bo'lib hisoblanadi.

1.2 Qo'shma gaplar haqida umumiy ma'lumot

Qo'shma gaplar butun bir murakkab fikrni ifodalovchi ikki yoki undan ortiq sodda gaplardan iborat bo'ladi.

Qo'shma gap til sintaktik sathining oliy birligidir. Sodda gap ham sintaktik sathning birligi hisoblansa-da, u qo'shma gapga qaraganda ancha ixcham birlikdir. Qo'shma gap sodda gapdan eng avvalo mazmun sig'iminining kattaligi, mazmuniy sintaktik tuzilishining o'ziga xosligi, murakkabligi bilan farqlanadi. Albatta, har ikkala gap turi, ya'ni sodda gap ham qo'shma gap ham muayyan hukm ifodachisi sifatida mavjud bo'lsa-da, sodda va qo'shma gaplar tuzilishi va munosabati ularning har birida mutlaqo o'ziga xosdir. Mantiq fani nuqtai nazaridan olib qaralganda sodda gaplarda sodda hukm, qo'shma gaplarda esa murakkab hukm ifodalanadi.

Qo'shma gap shaklan birdan ortiq sodda gaplarning birikuvidan tashkil topgan bo'lsa ham, bu sodda gaplar mazmunan yaxlit holda birikib, umumiy bir fikrni, maqsadni ifodalaydi. Bunday gaplar turli bog'lovchilar yoki bog'lovchi

vazifasidagi vositalar yordamida yoxud turlicha ohang yordamida o'zaro birikadi. Bunday qurilmalar gaplarning oddiy yig'indisi bo'lmay, yangi bir tuzilishga, Qo'shma gaplarning tuzilishi haqida to'xtaladigan bo'lsak, ular ma'lum vositalar bilan o'zaro jips bo'lgan gaplar birikmasidan iborat. Ma'lum mazmunni ifodalashda xizmat qiladigan gaplar grammatik, leksik grammatik va leksik vositalar yordamida o'zaro birikadi. Bundan tashqari, qo'shma gaplarni tuzishda qo'shma gap qismlarining zamon munosabati, gaplarning ohangi va joylashishining ham roli kattadir. Ko'rsatib o'tilgan vosita faqat qo'shma gapni tuzib qolmasdan qo'shma gap qismlari orasida ma'lum semantik munosabatlarning o'rnatilishi uchun ham xizmat qiladi.

Qo'shma gapni hosil qiluvchi grammatik vositalarga bog'lovchilar, yuklamalar, ko'makchilar kiradi. Bu vositalar bilan bog'langan va ergash gapli qo'shma gaplar tuziladi. Qo'shma gapni yasashda xizmat qiladigan leksik-grammatik vositalarga sifatdosh, ravishdosh, fe'llarning shart va buyruq shakli, harakat nomi kabilar kiradi. Ular o'z semantikalariga ko'ra, ma'lum birikmada va ma'lum qurilmalarda qo'shma gapni tuzishda xizmat qiladi.

Maxsus leksik vositalar va ayrim gap bo'laklarining semantikasi, funksiyasi va o'rni qo'shma gaplarni tuzishda, ma'lum mazmun munosabatlrini ifodalashda muhim vositachilik rolini o'ynaydi. Leksik vositalar qo'shma gapning hamma turida qo'llaniladi. Ammo qo'shma gapni tuzishda grammatik va leksik-grammatik vositalar qo'llangan o'rinlarda leksik vositalarning roli susayadi, lekin yo'qolmaydi. Ayniqsa bog'lovchisiz bog'lanagn qo'shma gaplarda leksik vositalarning roli kattadir. Negaki, ular bog'lovchisiz qo'shma gapni tuzuvchi asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi [25,38].

Qo'shma gaplarning asosiy belgilari xususida to'xtaladigan bo'lsak, qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar bir-birini mazmunan izohlaydi va har ikkisi birikib, umumiy maqsadni reallashtirish uchun xizmat qiladi. Qo'shma gap tarkibidagi gaplar grammatik tomondan ham bir-birlariga bog'liq bo'ladilar. Bunday gaplar kesimning bir xil yoki bir-biriga mos shaklda ekanligi, ularda umumiy darajali bo'laklarning mavjudligi, sodda gaplar tarkiibida mazmunan

izohlanayotgan bo'laklarning mavjudligi, kesimlar bir xil bo'lganda ularning bir o'ringda umumlashgan holda berilishi va boshqa xususiyatlar qo'shma gap tarkibiy qismlarining grammatik struktura tomonidan bir-biriga yaxlit tarzda bog'laydi.

Qo'shma gap tarkibidagi gaplarning ohang jihatdan ham o'ziga xos xususiyatlari bor. Qo'shma gap tarkibidagi bir gapning ohangi va har ikkala gap o'rtasidagi pauza ikkinchi bir gapni talab etdi. Qo'shma gaplar butun bir murakkab fikrni ifodalovchi ikki yoki undan ortiq sodda gaplardan iborat bo'ladi. Qo'shma gapning ikki turi mavjud.

Bog'langan qo'shma gap (The Compound Sentences) 1. Bog'langan qo'shma gap teng huquqli, bir-biriga qaram (tobe) bo'lmagan sodda gaplardan iborat bo'ladi. Qo'shma gap tarkibiga kiruvchi sodda gaplar bog'lovchilar yordamida bog'langan bo'ladi va ular odatda vergul (,) bilan ajratilgan bo'ladi:

The signal was given, and the steamer moved slowly from the dock. –

Signal berildi va paraxod dokdan sekin jo'nadi.

I came home early, but he remained to the end of the concert.

Men uyga erta qaytdim, ammo u konsertning oxirigacha qoldi.

2. Qo'shma gaplarda bir nechta sodda gaplar bog'lovchisiz ham bog'lanishi mumkin. Bunda ular bir-biridan nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi:

The signal was given: the steamer moved slowly from the dock.

Signal berildi; paraxod dokdan sekin jo'nadi.

He will return from London in May; his sister will stay there another month.

U Londondan may oyida qaytib keladi; uning singlisi u yerda yana bir oy qoladi.

Ergashgan qo'shma gaplar (The Complex Sentences) 1. Ergashgan qo'shma gap teng bo'lmagan, bir gap ikkinchisiga tobe bo'lgan gaplardan iborat bo'ladi. Ergashgan qo'shma gapda ergash gap (the subordinate clause) bosh gapni (the principle clause) izohlab keladi. Ergash gap bosh gap bilan bog'lovchilar va bog'lovchi so'zlar yordamida bog'lanadi. Men buni quyidagi misollar orqali ko'rsatib o'tmoqchiman:

He thought that the train arrived at 6:15.

U o'yladi poyezd 6:15 da kelgan deb.

He will get the letter tomorrow if you send it of now

U xatni ertaga oladi agar uni hozir jo'natsangiz.

After the agreement had been signed the delegation left London.

Bitim imzolanganidan keyin, delegatsiya Londonni tark etdi.

Once he had sent over to the House for a sheet to show how the Romans wore the toga.

Especially duiring his stretches of famine he suffered from lack of the weed, but no matter how often he mastered the craving, it remained with him as a strong as ever.

...he watched her moodily, realizing how impossible it was for her to understand what he had been through.

He didn't dream how ardent and masculine his gaze was, no that the warm flame of it was affecting the alchemy of her spirit.

It was time he came over to the House anyway and visualized how once he

Demak, qo'shma gapni tashkil etgan gaplar mazmuni, grammatik qurilishi va ohangi bilan alohida qo'llanuvchi mustaqil sodda gaplardan farq qiladi. Shuning uchun ham har qanday sodda gapni biriktirib, qo'shma gap hosil qilish mumkin emas[7,114].

Bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gaplar deb ikki va undan ortiq sodda gaplarning o'zaro grammatik bog'lovchilar yordamisiz birikuvidan xosil bo'lgan gaplarga aytiladi. Bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gaplarni tashkil etgan sodda gaplar o'zaro tobe yoki teng bog'lovchisiz birikadi. Bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gaplarni tashkil etgan sodda gaplar mazmunan birikib, ma'lum voqea-hodisalar o'rtasidagi mazmun–munosabatini ifodalab, umumiy maqsadni anglatibgina qolmay, bu holat gap tarkibidagi paralelizm hodisasini keltirib chiqaradi. Bu hol gaplarni bir-biriga jips bog'lab, ma'lum bir qo'shma gap turining paydo bo'lishiga olib keladi.

Bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gaplarning tuzilishidagi asosiy vosita ohang bo'lib hisoblanadi. U bog'lovchisiz boglangan qo'shma gaplarning va shunga o'xshash gaplarning tuzilishida asosiy faktor bo'lib xizmat qiladi.

Bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gaplarning o'rtasiga teng yoki tobe bog'lovchisini kiritib bo'lmaydi. Bunday bog'lovchi biror o'rinda kiritilgan taqdirda ham, butun gap qurilishi o'zgaradi va natijada maqsad to'liq ifodalanmay qoladi.

Bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplar deb o'zaro teng bog'lovchilar yordamida birikkan, mazmuni va tuzilishiga ko'ra bir butunlikni tashkil etgan qo'shma gap turlariga aytiladi. Bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplarni boshqa qo'shma gaplardan ajratib turuvchi asosiy grammatik belgi ulardagi teng bog'lovchilar va yuklamalardir. Bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplar tarkibidagi gaplar orasida turli mazmun munosabatlarining ifodalanishida ularning o'zaro semantik va grammatik munosabati, ayrim leksik unsurlarning qo'llanilishi va ohang kabilar muhim o'rin egallaydi. Masalan, qo'shma gap tarkibida ma'nosi bir-biriga zid bo'lgan so'z va shakllarning ishlatilishi qiyoslash zidlash, ayirish kabi ma'no munosabatlarni keltirib chiqaradi.

Biriktiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplar asosan and, neither ... nor, now ... now, not only ... but kabilar yordamida yasaladi. Bunday bog'lovchilarga nisbatan berilayotgan "biriktiruv" atamasi keng qamrovli bo'lib, u bog'lovchilarning leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Masalan: birgina and bog'lovchisining o'zi bir necha ma'no ottenkalariga ega, ya'ni u zamonga xos, nisbiy, zidlov, natija va sabab ma'nolarini ifodalashi mumkin. Vaholangki, biriktiruv bog'lovchilari turli ma'no ottenkalariga ega ekan, quyida ularni birma-bir izohlash joizdir.

1. Zamon munosabatini ifodalovchi bog'lovchilardan and bog'lovchisini qo'shma gap tarkibidagi qismlarni bog'lashda voqea –hodisalarning ketma – ket yoki bir vaqtda amalgam oshish tamoiliga asoslanadi. Bu hol odatda fe'l–kesimning zamon – tur shakllari orqali yoki vaqt holi orqali ifdalanishi mumkin.

Masalan: I heard a click and a little glow lamp came into being.

As if a sash window were gently reised was heard and soon afterwards the door softly opened.

Voqea-hodisalarning bir vaqtda sodir bo'lishini ifodalovchi bog'lovchilar, albatta, gapda tugallanmagan xarakterdagi fe'ning mavjudligini va birinchi gap ikkinchi gapning mazmunini takrorlab kelishini taqozo qiladi.

Masalan: The sunlight still showered on the plane-trees, and in the breeze their gay broad leaves shone and swung ...

I took three steps from the verandah towards Cavor's house and even as I did so came the wind.

2. Nisbiy munosabatni ifodalovchi bog'lovchilar ishtirok etgan gaplarda ikkinchi gap birinchi gapning biror –bir bo'lagi yoki gapning o'zi ifodalagan fikrni anglatadi. Bunday hollarda gapning ikkinchi qismida biror bir ko'rsatish olmoshi ishtirok etadi.

Masalan: I had a vague idea of going on to my own house, and that much was as motive as I had.

3. Zidlov munosabatini ifodalovchi bog'lovchilar qatoriga and bog'lovchisini ham kiritish mumkin. Chunki u ikki gapni bir –biriga qarama –qarshi qo'yish yoki qiyoslash xususiyatiga ham ega. Bunda ikki harakat yoki hodisa o'rtasidagi tafovvt va bir-biriga mos kelmaslik alomatlari namoyon bo'ladi.

Masalan: You have your opinion, and I have mine.

Till this time James was musing and now he inquired of his host and bother.

4. Sabab –natija munosabatini ifodalovchi bog'lovchilardan and gapda ishtirok etganda voqea-hodisalarning real ketma-ketligi ta'minlangan holda birinchi gapda sabab, ikkinchi gapda esa natija aks etdi .

Masalan: But he was sick and weary, and he soon fell sound asleep.

5. Sanash munosabatini ifodalovchi and bog'lovchisi ishtirok etgan gaplarni ikki qismida ifodalanayotgan voqea-hodisalar bir-biriga bog'liq bo'lmaydi va mutloq mustaqil bo'ladilar. Bunda sanash munosabati sodda gaplarning uyushiq bo'laklari o'rtasidagi munosabat bilan mos keladi.

Masalan: It was evening, the sun had set and stillness of the twilight was upon everything.

6. Inkor munosabatini ifodalovchi bog'lovchilar neither va nor bog'lovchilaridan iboratdir. Ular inkor ma'no aks etgan birinchi va ikkinchi gaplarni bir-biriga bog'lashda yordam beradi. Inkor bog'lovchilarining gapda ishlatilishi ayrim hollarda kesimning inversiya qilinishiga olib keladi. Bu ikki bog'lovchi bir-biriga sinonim hisoblanadi. Masalan: Mrs. Septimus Smallet fall no word, neither did she question Juni about him.

Ingliz tili grammatikasida bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplar o'z tarkibidagi bog'lovchining ma'nosiga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi. Jumladan ular biriktiruv, ayiruv, zidlov va sabab-natija bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplar deb ataladi [14,245].

Bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplar tarkibidagi ikki gap nafaqat bog'lovchilar orqali, balki fe'llarning tur-zamon shakllari, mayl shakllari (masalan, istak - xohish mayli), sintaktik qurilish paralellizmi yoki turlicha ko'rsatish olmoshlari orqali ham bog'lanishi mumkin. Bog'lanayotgan bu ikki gap tartibi esa albatta ma'lum bir qonun-qoidalarga asoslanadi. Bunga quyidagi gaplar namuna bo'ladi:

Will you please tell me how a tail gets on.

I did not see how I could raise money even for my pupil's year.

She did not mind how many years ahead the transformation scene took place.

She was constantly on edge to see how high he would to go.

These were the official marks, never mind how they were obtained.

2. Ergash gaplar bosh gap bilan bog'lovchilarsiz ham bog'lanishi mumkin:

He said he would come in the evening

U kechqurun kelishini aytdi.

The book you gave me is very interesting.

Siz menga bergan kitob juda qiziq.

BOB II. INGLIZ TILIDA ERGASH GAPNING IFODALANISHI

2.1 Ingliz tilida ergash gap va uning turlari

Ergashgan qo'shma gaplar fikriy, grammatik va ohangga xos butunlikdan iborat bo'lib, ularning tarkibidagi komponentlar biri ikkinchisiga tobe bo'ladi. Bunday qo'shma gaparning qismlari asosan ergashtiruvchi bog'lovchilar, nisbiy so'zlar, so'z shakllari, tobelanish ohangi kabi vositalar orqali birikadi.

Ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi yordamchilar ko'pincha ergash gap tarkibida kelib, ergash gapning tobe ekanligini korsatadi. Ergash gap bosh gapga nisbatan ma'lum vazifani bajaradi, bosh gapdagi bo'lakni aniqlaydi, to'ldiradi yoki uni butunicha izohlaydi. Shunga ko'ra ergash gap bilan gap bo'laklari vazifasiga ko'ra bir-biriga juda yaqindir. Shuning uchun ham ko'pincha ergash gaplar yoyiq gap bo'laklariga va oborotlariga sinonim bo'lib keladi.

Ergash gaplarning turlarini belgilashda komponentlarni biriktiruvchi grammatik vositalarngina emas balki ergash gap bosh gapga njsbatan qanday vazifani bajarishligini, shuningdek, ergash va bosh galarnig o'zaro munosabati, tuzilish xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Ergash gap tuzilishiga ko'ra mustaqillikni ancha yo'qotgan, bosh gap esa birozgina yo'qotgan bo'ladi. Shuning uchun bosh gap va ergashgan gap bo'lishidan qat'i nazar, bir-biriga mazmunan bog'lanadi, bir-birini aniqlaydi, izohlaydi, to'ldiradi. Ergash gap bosh gapga ergashadi, uni aniqlab, izohlab, to'ldirib keladi. Bosh gap esa ergash gap tomonidan aniqlanadi va izohlanadi.

Ergashgan qo'shma gaplarning eng muhim formal belgilaridan biri shundaki, bosh gapda albatta kesim, ya'ni fe'ning shaxsli shakli bilan ifodalangan kesim mavjud bo'lishi shartdir. Ergash gapda ham qoidaga binoan gapning bosh bo'laklari ishtirok etishi shart [20,213].

Ergashgan qo'shma gaplarning eng muhim grammatik ko'rsatkichi ergash gapning bosh gapdan oldin yoki keyin kelish muammosi bilan bog'liqdir. Ikki sodda gapdan tashkil topgan ergashgan qo'shma gaplarda ergash gap bosh gapdan oldin keladi.

Masalan: As soon as he could, he left the dining-room.

Agar ergashgan qo'shma gaplar tarkibidagi soda gaplar o'zaro bog'lovchilar yordamida biriksa, bog'lovchi tegishli bo'lgan gap doimo ikkinchi o'rinda keladi [25,30].

Ingliz tilidagi ergash gaplarning tasnifi umuman boshqa tillardagi gaplarning tasnifiga yaqin turadi. Ergash gaplarni soda gaplardagi muayyan bo'laklar bilan nisbatlash tilshunoslikda juda uzoq an'anaga ega. Ayrim tilshunosliklarda, masalan, ispan tilshunosligida ergash gaplarning vazifasini so'z turkumlarining sodda gaplardagi vazifasi bilan tenglashtirishdan iborat qarash ham mavjud. Lekin bu qarash ham avvalgi qarashdan unchalik farq qilmaydi. Ergash gapli qo'shma gaplarni yaxlitligicha soda gaplarga, ergash gaplarni esa sodda gap bo'laklariga o'xshatishga asoslangan tasnif juda keng tarqalgan. Bu tamoyilga asoslangan tasnif qolipi o'zining mohiyati e'tibori bilan XIX asrning o'rtalarida shakllandi. Bu tasnifning asosiy tamoyiliga muvofiq ergash gaplar orasida ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi va hol ergash gaplar farqlanadi. Hol ergash gaplarning turlari sifatida o'rin, ravish, daraja va miqdor, payt, sabab, maqsad, shart, to'siqsizlik ergash gaplar ajratiladi.

Ergash gaplarni sodda gap bo'laklariga o'xshatishga asoslangan tasnifga ergash gapli qo'shma gaplarni bosh va ergash qismlarning bog'lanish vositalariga ko'ra shakliy tasniflash qarama-qarshi qo'yiladi.

Ergash gapli qo'shma gaplar orasida ikki asosiy tip farqlangan: bog'lovchi vazifasidagi so'zli gaplar (nisbiy ergashish) va bog'lovchili gaplar (bog'lovchi ergashish). Uchinchi tarkibiy- mazmuniy tasnifning yaratilishida N.S.Pospelovning ishlari muhim rol o'ynaydi. U ergash gapli qo'shma gaplarni ikki asosiy tipini ajratgan: ikki a'zoli va bir a'zoli tip. Yani ikki azoli gaplarni ergash qism bosh qism bilan yaxlitligicha bog'lanadi, bir azoli gaplarda ergash qism bosh qismdagi bir so'zga tegishli bo'ladi. Bunda u bu so'zni rivojlantiradi yoki aniqlashtiradi.

Ergash gaplarning turlari. Ergash gaplar qo'shma gapda bitta gap bo'lagi vazifasini bajarib keladi. Tilimizda nechta gap bo'lagi bo'lsa, shuncha ergash gaplar ham bor. Ular ega ergash gaplar, kesim ergash gaplar, to'ldiruvchi ergash gaplar, aniqlovchi ergash gaplar va hol ergash gaplarga bo'linadi.

Gapda bitta, ikkita va undan ko'p gap bo'lagi ergash gaplar bilan ifodalanishi mumkin, boshqacha aytganda qo'shma gap tarkibida bir necha ergash gap bo'lishi mumkin. Bu quyidagi misollar orqali berilgan:

As it was raining, we could not show our friends from London our new fruit trees.
(Faqat bitta gap bo'lagi – sabab holi ergash gap bilan ifodalangan).

Yomg'ir yog'ayotgani uchun biz yangi o'tqazilgan mevali daraxtlarimizni Londonlik do'stlarimizga ko'rsata olmadik.

As it was raining, we could not show our friends, who had arrived from London, our new fruit trees. (ikkita gap bo'lagi – sabab holi va aniqlovchi ergash gap bilan ifodalangan).

Yomg'ir yog'ayotgani uchun biz Londondan kelgan do'stlarimizga yangi o'tqazilgan mevali daraxtlarimizni ko'rsata olmadik.

As it was raining, we could not show our friends, who had arrived from London, what we had planted in our garden. (Uchta gap bo'lagi – sabab holi, aniqlovchi va to'ldiruvchi ergash gap bilan ifodalangan).

Yomg'ir yog'ayotgani uchun biz Londondan kelgan do'stlarimizga bog'imizga o'tqazgan (mevali) daraxtlarni ko'rsata olmadik.

Ega ergash gaplar qo'shma gapda ega vazifasida keladi. Ular bosh gaplar bilan **who (whom), what, that, whether, if, whose, which, when, where, how, why** kabi bog'lovchilar va bog'lovchi so'zlar yordamida bog'lanadi:

That he has made a mistake is strange.

Uning xato qilgani g'alati.

Whether they will come today is not known yet.

Ular keladimi o'qmi hali noma'lum.

When we shall start is uncertain.

Qachon jo'nashimiz noaniq.

How this happened is not clear to any one.

Buning qanday sodir bo'lgani hech kimga aniq emas.

Ega ergash gaplar ko'pincha kesimdan keyin keladi, bu holda kesimdan oldin **“it”** olmoshi keladi:

It is strange that he has made a mistake.

It is not known yet whether they will come today.

It is uncertain when we shall start.

It is not clear to any one how this happened.

Ega ergash gaplar bosh gapdan vergul (,) bilan ajratilmaydi.

Ega ergash gapli qo'shma gaplar bosh gapda olmosh orqali ifodalangan eganing aniq ma'nosini ochish uchun xizmat qiladi yoki bosh gapda qo'llanmagan eganing vazifasini bajarib keladi. Bunday gaplar bir havola gaplar bo'lib, unda bosh gap to'liqsiz bo'ladi.

Kesim ergash gaplar qo'shma gapda kesim vazifasida keladi. Ular bosh gap bilan ega ergash gaplarda ishlatiladigan bog'lovchilar va bog'lovchi so'zlar yordamida bog'lanadi va buni quyidagi misollarda ko'rib chiqamiz:

The trouble is **that** I have lost his address.

Muammo shundaki, men uning manzilini yo'qotib qo'ydim.

The question is **whether** they will be able to help us.

Masala ular bizga yordam bera oladilarmi yo'qmi shunda.

The weather is **what** it was yesterday.

Havo kechagidek.

Kesim ergash gaplar bosh gapdan vergul bilan ajratilmaydi.

To'ldiruvchi ergash gaplar qo'shma gapda vositasiz yoki predlogli vositali to'ldiruvchi vazifasida keladi. To'ldiruvchi ergash gaplar bosh gap bilan ega va kesim ergash gaplarni bosh gapga bog'lashda ishlatiladigan bog'lovchilar va bog'lovchi so'zlar yordamida bog'lanadi:

He told us **that** he felt ill.

U kasal bo'lib qolganligini aytdi.

He asked us **what** we thought of it.

U bizdan bu haqida qanday fikrda ekanligimizni so'radi.

They laughed at **what** he said.

Ular uning gapidan kulishdi.

I'll ask him to find out **where** they live.

Men undan ular qayerda yashashlarini bilib kelishni so'rayman.

He has just gone away saying **that** he will return in an hour.

U bir soatdan keyin qaytib kelishini aytib hozirgina ketdi.

Ko'pincha **that** bog'lovchisi ishlatilmaydi:

I know (**that**) he has returned.

Uning qaytib kelganini bilaman.

To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplardagi to'ldiruvchi ergash gap bosh gapdagi fikrga obyekt sifatida xizmat qiladi. U bosh gapda olmosh orqali ifodalangan to'ldiruvchining ma'nosini konkretlab, izohlab keladi yoki to'ldiruvchisi bo'lmagan bosh gapdagi harakatning obyektini ko'rsatadi, ya'ni bosh gapdagi fe'l-kesimga nisbatan to'ldiruvchilik vazifasini bajaradi. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplar bosh gapda ikkala bosh bo'lakning ham mavjudligiga qaramasdan bir havola bo'lakli gap hisoblanadi. Bunda bosh gapning kesimi to'ldiruvchi ergash gap asosida aniqlikni talab etadi.

Masalan: I think you have some influence with her.

Ayrim hollarda to'ldiruvchi ergash gaplar nafaqat fe'lning ma'nosini aniqlab keladi, balki fe'lning o'timlilik xususiyatini ko'rsatadigan asosiy vasita hamdir. Masalan: insist, hope, wonder kabi fe'llar faqat ergash gap shakllarida predlogsiz to'ldiruvchini qabul qilishi mumkin.

To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplar **that, whether, if** kabi bog'lovchilar, lest holli bog'lovchi, shuningdek, ergash gapda ega va predikativli bo'lak bo'lib keladigan bog'lovchi so'zlar hamda bog'lovchisiz usullar bilan hosil qilinadi [7,157].

To'ldiruvchili gapda qo'llaniladigan fe'llarning semantik jihatdan bir necha turini sanab o'tish mumkin. Masalan: nutq va fikr anglatuvchi fe'llar: tell, say, inform, belgilash, qabul qilish ma'noli fe'llar: see, hear, feel, notice, remark, observe, aqliy faoliyatni anglatuvchi fe'llar: believe, conceive, consider, iltimos yoki xohishni anglatuvchi fe'llar: ask, beg, aniq bir holatni anglatuvchi fe'llar: take, buy, faraz va xohishni anglatuvchi fe'llar: wish, hope, suppose, intend.

Masalan: I **saw** plainly enough **that** he was angry with me.

Did you write on your letter what I **asked** you?

To'ldiruvchi ergash gaplar sodda gaplardagi predlogli to'ldiruvchilar kabi bosh gaping fe'l kesimi talab qiladigan predlogning ma'nosiga bog'liqdir.

Masalan: ... as I rose and dressed, I thought over what had happened ...

Bundan tashqari, to'ldiruvchi ergash gaplar tarkibli ot-kesim bilan ham birika olishi mumkin .

I'm so glad your mother has not spoilt you.

I was very much surprised that Mr. Peggotty was not Ham's father.

He said (**that**) Nodir felt tired.

To'ldiruvchi ergash gaplar bosh gapdan vergul bilan ajratilmaydi.

Whose, whom, which, what, when, where, how, why so'zlari bilan bog'langan ega, kesim va to'ldiruvchi ergash gaplarda darak gaplarning so'z tartibi ishlatiladi. So'roq gap tartibi faqat mustaqil so'roq gaplarda ishlatiladi:

How did he do it? (Mustaqil so'roq gap)

U buni qanday qildi?

How he did it is difficult to say. (Ega ergash gap)

U buni qanday qilganini aytish qiyin.

He told me **how** he did it . (To'ldiruvchi ergash gap)

U menga buni qanday qilganini aytib berdi.

Yuqoridagi misollarda Howni so'roq so'z bo'lib so'roq gap tarkibida ishtirok etayotganini va How relative olmoshi sifatida kelib ergashgan qo'shma gap tarkibida kelganini ko'rishimiz mumkin.

When bilan bog'langan ega, kesim va to'ldiruvchi ergash gaplarda kelasi zamonning o'rnida hozirgi zamon ishlatilmaydi. Faqat payt va shart ergash gaplarda kelasi zamonning o'rnida hozirgi zamon ishlatiladi:

When he will arrive is not yet known.

Uning qachon yetib kelishi hali noma'lum.

The question is **when** he will arrive.

Masala uning qachon yetib kelishida.

He has told me when he will arrive.

U menga qachon yetib kelishini aytdi.

Ingliz tilida ergash gapning turlari haqida ingliz tili nazariy grammatikasida quyidagi fikrlar berilgan. Ergash gaplarni ularning ba'zi shakliy belgilari hamda vazifalariga ko'ra uch katta guruhga ajratish mumkin: 1. ega, predikativ bo'laklar va to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplar; 2. aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar; 3. hol ergash gapli qo'shma gaplar. Birinchi guruhga *that, whether, if* kabi bog'lovchilar, bog'lovchi so'zlar ya'ni so'roq olmoshlari va ravishlar va bog'lovchisiz vositalar yordamida yasalgan ergash gaplar kiradi. Ikkinchi guruhga bog'lovchi so'zlar, masalan nisbiy olmosh va ravishlar, shuningdek, bog'lovchisiz voistalar yordamida yasalgan ergash gaplar kiradi. Uchinchi guruhga esa hol ma'nosini anglatadigan bog'lovchilar ishtirokidagi ergash gaplar kiradi [20,225].

Predikativli bo'lak ergashgan qo'shma gaplar tarkibli kesimning yordamchi qismi bilan yasaladi. Tarkibli kesimning yordamchi qismi shaxsli va shaxssiz gaplar bilan bog'liqdir. Bunda ergash gaplar birinchi holatda be bog'lovchisi bilan, ikkinchi holatda esa modal ma'noli **seem, appear, look** va boshqa bog'lovchilar bilan hosil bo'ladi.

Predikativli bo'lak ergashgan qo'shma gaplar **that, whether, if** kabi bog'lovchilar, holli bog'lovchilar, masalan, **as if**, bog'lovchi so'zlar, ya'ni **what, who, why, where, how, when** kabilar yordamida yasaladi. Lekin ba'zi hollarda bog'lovchisiz ergashishni ham kuzatish mumkin.

Ergash gaplarning shaxssiz shakllari ergashgan gaplarda ifodalangan real vaziyatga nisbatan ikkilanishni anglatadigan **seem, appear, look** kabi bog'lovchi fe'llar hamda ergash gapdagi harakatni ko'rsatuvchi **happen, chance, occur** kabi fellar yordamida yasaladi. Bundan tashqari, ergash gaplar bosh gapga ayrim sifatlar orqali ham bog'lanish mumkin. Ular ko'pincha sodda gapdagi ot-kesimning ot qismi bo'lib, ergash gap mazmunining zarurligi yoki bo'lishi mumkinligiga nisbatan baho beradi. Masalan, **necessary, possible, impossible, natural, senseless**.

It is necessary how he learnt English still.

It is impossible that he came back early from school.

It is natural how much children love their mother.

Aniqllovchi ergash gapli qo'shma gaplardagi aniqllovchi ergash gap bosh gapda aniqllovchi vazifasida qo'llanilgan ayrim so'zlarning ma'nosini konkretlashtirib keladi yoki bosh gapdagi predmetning aniqllovchisi vazifasini bajaradi. Aniqllovchi ergash gap ko'pincha bosh gapdagi predmet belgisini uning harakatini va holatiga ko'ra aniqlaydi. Bosh gapdagi aniqlanayotgan so'zining harakatini yoki holitiga ko'ra belgisini ko'rsatadi.

Aniqllovchi ergash gaplar bosh gapga **who, which, that** va kamdan-kam hollarda **what** nisbiy olmoshlari yoki **when, which, why** kabi nisbiy ravishlar yordamida, shuningdek, bog'lovchisiz usullar yordamida birikishi mumkin.

Aniqllovchi ergash gaplar o'z grammatik tabiatiga ko'ra ikkiga bo'linadi: chegaralangan va tasviriy.

Birinchi guruh gaplari aniqlanmish bilan uzviy bog'liq bo'lib, bosh gapdagi biror-bir bo'lakning aniqllovchisi vazifasini bajaradi va ular bosh gap bilan birgalikda bir havola bo'lakli gap hisoblanadi. Tasviriy aniqllovchi gaplar esa bosh gapning biror-bir bo'lagi bilan moslashadi, lekin o'z mohiyatiga ko'ra uning aniqllovchisi vazifasini bajarmaydi, Tasviriy aniqllovchili ergash gapli qo'shma gaplar ikki havola bo'lakli gaplar hisoblanadi [25,39].

Ergash gaplarning yuqorida keltirilgan har bir turi ba'zi o'ziga xos shakliylar ko'rsatgichlarga ega bo'lib, bu ko'rsatgichlar ularni nafaqat mazmun jihatdan balki ma'lum grammatik belgilar jihatdan ham farqlashga imkon beradi.

Chegarovchili aniqllovchili ergash gaplar yuqorida ta'kidlanganidek, bir havola bo'lakli gaplar hisoblanadi. Bunday gaplardagi bosh va ergash gap o'rtasidagi uzviy bog'liqlik aniqllovchi va olmoshli xarakterga ega bo'lgan aniqlanmishning o'ziga xos xususiyatlarida namoyon bo'ladi, Bunda aniqlanmishlar bosh gap mazmunining tugallanmaganligini ko'rsatadi. Bu ikki gapni bir-biri bilan bog'lashda **who, which, that** kabi nisbiy olmoshlar yordam beradi.

Chegaralangan aniqllovchili ergashgan qo'shma gaplar tarkibidagi aniqllovchi vazifasini aniq va noaniq artikllar, **that** ko'rsatish olmoshi, **some, any** noaniq olmoshlari, **each, every** kabi umumlashtiruvchi olmoshlar bajarilishi

mumkin. Aniqlanayotgan so'zlar oldidan such, (the) same ko'rsatish olmoshlari ishtirok etishi mumkin, lekin ular aniqlovchi vazifasini o'tamaydi.

Tasviriy aniqlovchili ergashgan qo'shma gaplar chegaralangan aniqlovchili ergashgan qo'shma gaplar singari bosh gapning biror bir bo'lagiga tegishli bo'ladi. Lekin grammatik nuqtai nazardan ular bosh gap bilan ancha erkin aloqaga ega. Bu yerda aniqlovchi va aniqlanmishlar mos so'zlar vazifasini bajarmaydi. Bunday gaplar uchun that ko'rsatish olmoshi va egalik olmoshlarining aniqlovchi sifatida qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Aniqlanmishlarning bunday aniqlovchilar bilan birga qo'llanilishi tugal fikr ifodasi ekanligini ko'rsatadi. Buning natijasida bosh gap tugal fikrni ifodalaydi. Tasviriy aniqlovchili ergashgan qo'shma gaplar ikki havola bo'lakli gaplar hisoblanadi.

Quyida biz tasviriy aniqlovchili ergashgan qo'shma gaplarni chegaralangan aniqlovchili ergashgan qo'shma gaplardan farqlash vositalarini ko'rib chiqamiz. Bu vosita aniqlovchi va aniqlanmishni o'z ichiga oladi. Bunday gaplarda aniqlovchi quyidagi vositalar orqali ifodalanishi mumkin:

-noaniq artikul bilan ifodalanadi:

...They had a capital walk too, which had done his liver good.

-aniq artikul bilan ifodalanadi:

...When they were once more in the carriage, which buy some fortunate.

Chance had lingered near the door, he asked her...

-**This, that** olmoshlari bilan ifodalanadi:

He had merely increased his dislike and mistrust of this young man, who had tired him with his politeness.

-egalik olmoshlari bilan ifodalanadi;

On the morning of his case, which was second in the list, Soames was again obliged to start without seeing Irene...

Endi hol ergash gapli qo'shma gaplar xususida to'xtaladigan bo'lsak, u o'zining rang-barangligi bilan boshqa ergash gaplardan ajralib turadi. Uning turli tumanligi ular ifodalayotgan ma'nolar va voqea-hodisalarga nisbatan bo'lgan munosabatlarning xilma-xilligi bilan bog'liqdir. Bunday munosabatlarning

anglatayotgan mazmuniga ko'ra hol ergash gapli qo'shma gaplar to'rt katta guruhga, bu katta guruhlar esa o'z navbatida yana o'ziga xos mayda guruhlarga bo'linadi:

1. Bosh gapdagi harakatning makon va zamon nuqtai –nazaridan tavsiflaydigan hol ergash gapli qo'shma gaplar:

-paytni ifodalovchi gaplar.

-o'rinni ifodalovchi gaplar.

2. Bosh gapdagi harakatning biror –bir maqsad sari yo'nalish va taqozo nuqtai-nazaridan tavsiflaydigan hol ergash gapli qo'shma gaplar:

-sababni ifodalovchi gaplar

-natijani ifodalovchi gaplar

-maqsadni ifodalovchi gaplar.

3. Bosh gapdagi harakatni biror-bir shart assosida amalga oshishini ifodalaydigan hol ergash gapli qo'shma gaplar:

-shart ma'nosini ifodalovchi gaplar

-to'siqsizlik ma'nosini ifodalovchi gaplar

4. Bosh gapdagi harakat yoki holatni sifat va sur'at nuqtai-nazaridan tavsiflaydigan hol ergash gapli qo'shma gaplar:

-qiyosiy ma'noni ifodalovchi gaplar

-harakat tarzini ifodalovchi gaplar

O'rin ergash gapli qo'shma gaplar, asosan, ikki havola bo'lakli bo'ladi. Bunday qo'shma gaplarda bosh gap ham ergash gap ham denotativ voqeani ifodalaydi. Bu denotativ voqealar o'rin jihatdan umumiylikka ega bo'ladi, ammo ergash gapda ifodalangan denotativ voqeaning sodir bo'lish o'rni aniq emas, balki umuman aytiladi.

O'rin ergash gapli qo'shma gaplar tarkibidagi o'rinni bildiruvchi so'zlarning grammatik tabiati xususida yagona bir qarashning o'zi yo'q. Masalan; **where**, **whither**, **wherever** so'zlari goh bog'lovchilar deb qaralsa, goh bog'lovchi so'zlar deb qoraladi. Biroq bizga ma'lumki, bog'lovchi va bog'lovchi so'z o'rtasida ma'lum bir farq mavjud. Ya'ni, bog'lovchi so'z nafaqat ergash gapni bosh gapga

bog'laydi, balki ergash gap tarkibida uning biror-bir bo'lagi sifatida ham xizmat qilishi mumkin [12,202].

Yuqorida keltirilgan so'zlar bog'lovchi so'z deyishga asos bor. Chunki ular ravishlar hisoblanib, ergash gaplarda o'rin holi vazifasini bajaradi. Ulardan faqat **where** bog'lovchisiga o'xshaydi.

Payt ergash gapli qo'shma gaplar bosh gapdagi harakat va voqeaning yuzaga kelish paytini-vaqtini bildiradi. Bunday qo'shma gaplarda ergash gap bosh gapdagi harakatning paytinigina bildirib qolmay, balki shunga bog'langan holda shart, sabab ottenkalarini ham ko'rsatadi. Lekin bunday gaplarda payt mazmuni sabab va shart ma'nolaridan ustin turadi. Sabab va shart ma'nolari unga qo'shimcha bo'lib keladi.

Ingliz tili grammatikasida payt ergash gapli qo'shma gaplar bosh gapdagi harakatni uning zamonda sodir bo'lish nuqtai nazaridan tavsiflaydi. Bunda bosh gap ergash gapga turli xil vaqt ottenkalarini ifodalovchi bog'lovchilar orqali birikadi. Bosh va ergash gapdagi harakatning bir vaqtda va ketma-ket sodir bo'lishi payt ergash gapli qo'shma gaplar uchun xarakterli qo'shma gaplar hisoblanadi. Ulardagi vaqtga xos munosabatni ifodalovchi eng muhim bog'lovchi *when* bog'lovchisidir. Payt ergash gapli qo'shma gaplarning ko'pchiligi ikki havola bo'lakli gaplardir.

Ikkala gapda ifodalanayotgan harakatning bir vaqtda sodir bo'lishini ifodalashda *when, as, while, as soon as, as long as, the moment* kabi bog'lovchilar yordam beradi. Ikkala gapda ifodalanayotgan harakatning ketma-ket sodir bo'lishi ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi: birinchi ko'rinishda bosh gapdagi harakat ergash gapdagi harakatdan oldin sodir bo'ladi, ikkinchi ko'rinishda esa aksincha, bosh gapdagi harakat ergash gapdagi harakatdan keyin sodir o'ladi.

Bunda *when* bog'lovchisi ikkala holatni ham, ya'ni harakatning bir vaqtda sodir bo'lishini ham, ketma –ket sodir bo'lishini ham ifodalashga yordam beradi. Bunday hollarda ularga aniqlik kiritish uchun bosh yoki ergash gapning birortasida o'tgan perfekt zamonlaridan biri ishlatilganligiga e'tibor qaratish lozim.

Sabab ergash gapli qo'shma gaplar o'z mazmuniga ko'ra sabab munosabatidan iboratdir. Ergash gapda sabab voqea, bosh gapda esa ana shu sababga ko'ra yuzaga keladigan voqea ifodalanadi. Boshqacha qilib aytganda, ergash gapdagi voqea mazmunan bosh gapdagi voqea ichiga sabab uzviy sifatida kiradi. Chunki bosh gapdagi voqea asosiy voqea hisoblanadi.

Ingliz grammatikasida sabab ergash gapli qo'shma gaplar bosh gapdagi harakatning sababli tarzda amalga oshishini ifodalaydi. Bu gap tarkibidagi ishtirok etishi mumkin bo'lgan because, as, since, seeing (that) kabi bog'lovchilar bir-biriga sinonim bo'lib, ular o'ziga xos ma'no ottenkalariga ega. Masalan: because bog'lovchisi ishtirokidagi sabab ergash gapli qo'shma gaplar odatda bosh gapda ifodalangan harakat yoki holatning bevosita sababini ko'rsatadi. Shuningdek, as bog'lovchisi ishtirokidagi sabab ergash gapli qo'shma gaplar bosh gapning mazmun-mohiyatini ifodalaydi. Buni quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin:

He began the day thus because there was no time to go far a field before his lessons.

As she is not a heroine there is no great need to describe her person.

Natija ergash gapli qo'shma gaplarda natija munosabati gapning mazmunini tashkil etadi. Ikkinchi voqea birinchi voqeaning natijasi sifatida yuzaga keladi. Shuni aytish joizki, bosh gapdagi harakat atay ergash gapdagi harakatni amalga oshirish uchun qilinmaydi, balki ergash gapdagi harakat bosh gapdagi harakatning natijasi sifatida o'z-o'zidan kelib chiqadi [12,156].

Ingliz tili grammatikasida natija ergash gapli qo'shma gaplarda bosh gap mazmunidan kelib chiqadigan natija that bog'lovchisi, so ravishi va tarkibli bog'lovchi so that orqali ifodalanadi. Agar natija ergash gapli qo'shma gaplarda so ravishi ishtirok etsa, u holda ergash gap bosh gapning grammatik jihatdan tugallangan bo'lishini talab qiladi va ergash gap bosh gapda ifodalangan harakat yoki hodisaning bevosita natijasini ifodalaydi. Masalan:

He continued to sing with so much energy that he did not hear the sound of wheels ...

Agar natija ergash gapli qo'shma gaplarda tarkibli bog'lovchi so that ishtirok etsa, u holda bu gap ikki havola bo'lakli bo'lib, undagi so that bog'lovchisi so that bilan uzviy bog'liqlikni tashkil etadi:

He was keeping his head down so that only helmet and eyes showed ...

Bu misoldagi so that bog'lovchisi ikki gapni bog'lash jihatdan ma'noviy bog'liqlikni aks ettirib, u bosh gapning harakatidan kelib chiqadigan natijani emas, balki uning natijalaridan birinigina ifodalashi mumkin.

Maqsad ergash gapli qo'shma gaplar o'z mazmuniga ko'ra voqealar o'rtasidagi maqsad munosabatidan iborat bo'ladi. Shartlanganlik munosabatlarining sabab turida aytib o'tilganiday, keltirib chiqaruvchi voqeaning tabiati asosiy bo'lsa, maqsad munosabatida kelib chiquvchi voqeaning tabiati muhimdir.

Ingliz tili grammatikasida maqsad ergash gapli qo'shma gaplar harakatning ma'lum bir maqsadga qaratilinganligini ifodalab, that, in order that, so that bog'lovchilari hamda lest, for fear (that) kabi inkor ma'noli bog'lovchilar ishtirokida yasaladi. Ular ergash gapdagi kesimning modallikka xos tarzda kelishi bilan tavsiflanadi. Inkor ma'noni anglatuvchi lest, for fear (that) bog'lovchilari ishtirokidagi maqsad ergash gapli qo'shma gaplar ergash gapda kelib, istak-hoxish maylining should shakli bilan mustahkam shaklga ega. Shuningdek, that ishtirokidagi gaplarda may (might) fe'li bilan tarkibli modal fe'l-kesim yuzaga keladi. Bundan tashqari, so that bog'lovchisi ishtirokidagi gaplar kesimning mustahkam modal shakliga ega bo'lmaydi va ulardagi kesim istak-hoxish maylining should shakli bilan ifodalanishi mumkin hamda may fe'li bilan tarkibli modal fe'l kesim yuzaga kelishi mumkin. Maqsad ergash gapli qo'shma gaplar ikki havola bo'lakli gaplar hisoblanadi. Quyidagi gaplarni taqqoslang:

He pointed to his honoured parent with the carving-fork, in order that they might know whom he meant.

I have told her so, and so for fear she should tell you, I do it myself.

... the children of four and five and six who had been brought early, so that they should miss no chance to hear Paul Roberson sing ...

To'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplar shartlanganlik munosabatlarini ifodalab, ayni munosabatning namoyon bo'lishi va uning idrok qilinishi jihatidan benihoya o'ziga xosdir. Eng avvalo bunday gaplarda bir paytning o'zida ikki xil munosabat, ya'ni ham shart munosabati, ham to'siqsizlik munosabati mavjud bo'ladi. Albatta, asosiy va demak, to'siqsiz ergash gapli qo'shma gap tuzishga olib keladigan munosabat to'siqsizlikdan iborat, lekin bu munosabatni tasavvur qilish mumkin emas. Chunki to'siqsizlik deganda, muayyan shartning tegishli voqeaning yuzaga kelishida to'siq bo'lmasligi nazarda tutiladi. Bunda shart munosabati bevosita emas, balki bilvosita ishtiork etadi. Boshqacha qilib aytganda, shart munosabati ayni gapda tag bilim (presuppozisiya) sifatida mavjud bo'ladi. Agar tag bilim sifatida shart munosabati ishtirok etmas ekan, to'siqsizlik munosabatining yuzaga kelishi mumkin emas.

Ingliz tili grammatikasida bunday gaplar shartlanganlik holini ifodalab, bosh gapda sodir bo'ladi. U ikki havola bo'lakli gap hisoblanadi. Bu gapda eng ko'p qo'llaniladigan bog'lovchi *though*, *although* bog'lovchilaridir. Shulardan *although* bog'lovchisi faqat yozma adabiy tilga xosdir. Agar tarkibli kesimning predikativ bo'lagi sifat yoki sifatdosh bilan ifodalangan bo'lsa, u holda as bog'lovchisi ham to'siqsiz ergashgan qo'shma gaplarda ishtirok etishi mumkin. Bulardan tashqari, *however* bog'lovchisi hamda *whatever* va *whoever* bog'lovchi so'zlari to'siqsiz ergashgan qo'shma gaplarda ishtirok etganda umumlashtiruvchi ma'no ottenkasini o'zlarida aks ettiradi. Masalan:

The curtains were not yet drawn, though the lamps outside were lighted.

Harmless as this speech appeared to be, it acted on the traveller's distrust, like oil on fire.

However much he might be on his guard, he was interested.

Shart ergash gapli qo'shma gaplar o'zlarining mazmunida shart munosabatini aks ettiradi. Yuqorida aytilniki, shart munosabatidagi voqealarning birinchisi – shartni ifadalagani irreallik kasb etadi.

Shart ergash gapli qo'shma gaplar to'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplardan farq qilgan holda bosh gapdagi harakatning amalga oshishi jarayonidagi

shartlanganlik munosabatini ko'rsatadi. Uning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, unda modallikning yorqin ifodasi namoyon bo'ladi hamda bosh gapga shart maylining shakllari keng tarzda qo'llaniladi. Bunday gaplar ikki havola bo'lakli gaplar hisoblanadi.

Shart ergash gapli qo'shma gaplarda eng ko'p ishlatiladigan bog'lovchi if bog'lovchisidir. Qolgan bog'lovchilar esa faqat if bog'lovchisi bilan ifodalangan munosabatni aniqlab keladi. Shuningdek, unless va but, that bog'lovchilari inkor ma'noga ega bo'lib, ular ergash gapda harakat amalga oshmaydigan bo'lsa, bosh gapdagi harakat shartli tarzda amalga oshishini ko'rsatadi. Bundan tashqari, incase, provided, suppose, supposing kabi bog'lovchilar harakat sodir bo'lishining turli xil o'ttenkalarini aks ettiradi. Masalan: provided bog'lovchisi harakat sodir bo'lishining aniq shartini ifodalasa, suppose bog'lovchisi esa harakat sodir bo'lishining tahminiy yoki faraz qilinadigan shartini ifodalaydi. Agar ergash gapning kesimi modal ma'noga ega bo'lmagan o'tgan zamonda kelsa, u holda ergash gapdagi harakat farz qilish ma'no o'ttenkasiga ega bo'lmaydi. Masalan:

Since the war he never took a cab if he could help it.

